Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 91
TABIIY FANLAR

AHOLI TURMUSH TARZI IJTIMOIY-GEOGRAFIK TADQIQOTLARINING ZAMONAVIY METODOLOGIK ASOSI: MDH VA O'ZBEKISTON GEOGRAFIYA MAKTABLARI TAJRIBASI

Dilshoda Hoshimovna Yuldasheva[a,*], Xayitboy Abdug'aniyevich Abduvaliyev[b]

[a] *Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi*
[b] *Farg'ona davlat universiteti geografiya kafedrasi dotsenti.*
✉ dilshoda@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada aholi turmush tarzini ijtimoiy-geografik tadqiq etishning zamonaviy metodologik asoslari tahlil qilingan. Unda MDH hamda O'zbekiston geografiya maktabi vakillarining aholi turmush tarziga oid ilmiy qarashlari tizimlashtirilgan, shuningdek, ijtimoiy makon, geografik determinizm, possibilizm, neodeterminizm, radikal va post-strukturalist geografiya, konvergensiya-divergensiya hamda barqaror rivojlanish konsepsiyalarining turmush tarzini hududiy tadqiq etishdagi ilmiy ahamiyati ochib berilgan. *Tadqiqot natijasida* aholi turmush tarzining ijtimoiy-geografik mohiyati aniqlashtirilib, uning tarkibiy elementlari hamda hududiy farqlanish qonuniyatlari umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar

aholi turmush tarzi, ijtimoiy geografiya, ijtimoiy makon, hududiy farqlanish, MDH geografiya maktabi, O'zbekiston geografiyasi, geografik determinizm, possibilizm, neodeterminizm, radikal geografiya, post-strukturalist geografiya, konvergensiya, divergensiya, barqaror rivojlanish.

DOI: 10.5281/zenodo.21835600

Kirish. Aholi turmush tarzi bugungi kunda ijtimoiy geografiyaning eng murakkab va ko'p qirrali tadqiqot obyektlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Insonlarning mehnat faoliyati, yashash muhiti, iste'mol madaniyati, oilaviy munosabatlari, ma'naviy ehtiyojlari hamda kundalik hayotini tashkil etuvchi boshqa jarayonlar muayyan hududning tabiiy, iqtisodiy, demografik va madaniy sharoitlari ta'sirida shakllanadi. Shu sababli turmush tarzini geografik nuqtai nazardan tadqiq etish nafaqat uning mazmunini ochib berish, balki hududlar o'rtasidagi ijtimoiy tafovutlar, aholi farovonligi va barqaror rivojlanish jarayonlarini tushuntirishda ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot ushbu mualliflarning avval chop etilgan **"Aholi turmush tarzi ijtimoiy-geografik obyekt sifatida xorijiy manbalarda o'rganilishi"** mavzusidagi maqolasining mantiqiy davomi hisoblanadi. Avvalgi maqolada fransuz, amerika va britaniya geografiya maktablari vakillarining turmush tarziga oid ilmiy qarashlari, madaniy landshaft, vaqt geografiyasi, inson taraqqiyoti va ijtimoiy adolat kabi nazariy yo'nalishlarning shakllanishi tahlil qilingan edi. Ushbu maqolada esa mazkur ilmiy qarashlarning keyingi rivojlanish bosqichlari, xususan, MDH mamlakatlari hamda O'zbekiston geografiya maktabi olimlarining tadqiqotlari zamonaviy metodologik yondashuvlar bilan uyg'un holda ko'rib chiqiladi.

Bugungi globallashuv, urbanizatsiya va raqamli transformatsiya sharoitida aholi turmush tarzining hududiy xususiyatlari tobora murakkablashib bormoqda. Bir tomondan, turli hududlarda yashovchi aholining hayot standartlari o'zaro yaqinlashayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, iqtisodiy imkoniyatlar, ekologik sharoit, infratuzilma va ijtimoiy xizmatlardan foydalanishdagi tafovutlar ayrim mintaqalarda yanada kuchay-

moqda. Bunday sharoitda aholi turmush tarzini faqat iqtisodiy yoki demografik ko‘rsatkichlar orqali emas, balki hududiy, madaniy va ijtimoiy-geografik omillar uyg‘unligida o‘rganish zarurati ortmoqda.

Shu nuqtai nazardan maqolada rus va MDH geografiya maktabining klassik vakillari, O‘zbekiston olimlarining ilmiy ishlari hamda ijtimoiy makon nazariyasi, determinizm va possibilizm, neodeterminizm, radikal va post-strukturalist geografiya, konvergensiya-divergensiya hamda barqaror rivojlanish konsepsiyalarining aholi turmush tarzini hududiy tadqiq etishdagi o‘rni kompleks tahlil qilinadi. Bu esa turmush tarzining zamonaviy ijtimoiy-geografik konsepsiyasini shakllantirish, uning tarkibiy elementlarini tizimlashtirish va kelgusidagi amaliy tadqiqotlar uchun metodologik asos yaratishga xizmat qiladi.

Natija va muhokama. Rus va MDH geografiyasi maktabida turmush tarzini tadqiq etishning o‘ziga xos an’analari shakllangan. Bu sohada N.N.Baranskiyning ishlari fundamental ahamiyat kasb etadi. Olim o‘zining “Очерки по школьной методике экономической географии” (1954) asarida iqtisodiy geografiyaning aholi geografiyasi bilan uyg‘unligini asoslab berdi va aholini “ishlab chiqarish kuchlarining asosiy elementi” sifatida ta’rifladi [5]. N.Baranskiy ilmiy maktabining davomchisi sifatida Yu.G.Saushkin “Введение в экономическую географию” (1958, 1970) asarida ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaning predmeti va tadqiqot obyektlarini batafsil yoritdi [Саушкин Ю.Г. Экономическая география: история, теория, методы, практика. –М.: Мысль, 1973. -559 с.]. Olimning yondashuvi bo‘yicha turmush tarzi ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaning eng murakkab va ko‘p qirrali tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi.

A.G.Isachenko o‘zining ko‘p sonli ishlarida landshaftshunoslik nuqtai nazaridan turmush tarzining tabiiy muhit bilan o‘zaro aloqasini chuqur tahlil etgan [6]. Olimning yondashuvi bo‘yicha har bir landshaft turi o‘ziga xos turmush tarzini taqozo etadi va ushbu bog‘liqlik mintaqaviy farqlarni shakllantiruvchi muhim omildir. V.S.Preobrajenskiy esa “Полевые исследования природных комплексов” (1959) asarida tabiiy komplekslarni o‘rganish orqali ulardagi aholi turmush tarzining xususiyatlarini aniqlash mumkinligini asosladi.

B.B.Rodoman o‘zining “Поляризованный ландшафт” (qutblashgan landshaft) konsepsiyasi orqali shahar va qishloq turmush tarzi o‘rtasidagi tafovutlarni nazariy jihatdan asoslab berdi [11]. Olimning yondashuvi bo‘yicha hududiy taraqqiyot turmush tarzining ikki asosiy turi – urbanizatsiyalashgan va an’anaviy qishloq turmush tarzi orasida muvozanatga erishishni talab etadi.

V.P.Maksakovskiy ham aholi turmush tarzini global va mintaqaviy darajada tadqiq etishga bag‘ishlangan bir qator asarlar yaratgan. Olimning “Географическая картина мира” (1996) asarida turmush tarzining hududiy farqlanishi va uni belgilovchi omillar batafsil tahlil etilgan [9].

S.A.Kovalev o‘zining “Сельское расселение” (1963) klassik asarida qishloq aholi punktlari sharoitida turmush tarzining geografik xususiyatlarini birinchi marotaba tizimli tahlil qildi [7]. Olimning yondashuvi bo‘yicha qishloq turmush tarzi nafaqat tabiiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillarning birgalikdagi ta’siri natijasida shakllanadi. T.I.Zaslavskaya esa sotsiologiya va geografiya tutashtirilgan tadqiqotlarida qishloq aholisining turmush tarzi va ijtimoiy harakatchanligini chuqur tahlil etib, bu sohada uslubiy yangi yondashuvlarni taklif etgan.

B.S.Xorev “Региональная политика в СССР” (1989) asarida hududiy siyosatning aholi turmush tarziga ta’sirini batafsil yoritdi. Olimning yondashuvi bo‘yicha mintaqaviy darajada turmush tarzining barqaror rivojlanishi davlat siyosatining maqsadli tartibga solinishini taqozo etadi [12].

O‘zbekiston geografiya maktabida aholi turmush tarzini tadqiq etishda A.S.Soliev, O.B.Ota-Mirzayev, M.Q.Qoraxonov, Z.S.Akramov, A.Abdunazarov, R.Ubaydullayeva, S.Zokirov, X.Oblaqulov kabi olimlarning xizmatlari katta. A.S.Soliev o‘zining “O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” (2014) darsligida aholi turmush tarzini mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot konteksida tadqiq etish metodologiyasini ishlab chiqdi [3]. Olimning yondashuvi bo‘yicha O‘zbekiston sharoitida turmush tarzining hududiy farqlanishi tabiiy-iqtisodiy mintaqalarning xususiyatlari, mehnat resurslari taqsimoti, qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvi va shaharlashuv darajasi bilan bevosita bog‘liqdir.

O.B.Ota-Mirzayev o‘zining ko‘p sonli asarlarida shahar aholisi turmush tarzi va urbanizatsiya jarayonlarining O‘zbekiston sharoitidagi xususiyatlarini tahlil qildi. Olimning fikriga ko‘ra, mamlakatimizda urbanizatsiya jarayoni o‘ziga xos modelda kechgan bo‘lib, u shahar va qishloq turmush tarzi o‘rtasidagi tafovutlarni saqlab qolish bilan birga, ularni asta-sekin yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

M.Q.Qoraxonov ishlarida demografik jarayonlar va aholi turmush tarzining hududiy farqlanishi o‘rtasidagi munosabat batafsil yoritilgan [8]. Olimning yondashuvi bo‘yicha demografik o‘zgarishlar tug‘ilish, o‘lim, migratsiya – turmush tarzining hududiy modulyatsiyasini keltirib chiqaradi.

Z.S.Akramov o‘zining tadqiqotlarida O‘zbekistondagi qishloq aholisi turmush tarzini iqtisodiy-geografik nuqtai nazardan o‘rganib, hududiy mehnat taqsimoti va xo‘jalik ixtisoslashuvining turmush tarziga ta’sirini ochib berdi [4].

A.Abdunazarovning ishlarida iqtisodiy geografiya kontekstida aholi farovonligi va mintaqaviy taraqqiyot masalalari yoritilgan. Olimning yondashuvi bo‘yicha turmush tarzining sifati hududning iqtisodiy salohiyati, infratuzilma rivojlanish darajasi va ijtimoiy xizmatlarning mavjudligi bilan bog‘liqdir.

R.Ubaydullayeva tadqiqotlarida mehnat resurslari va aholi bandligining mintaqaviy farqlanishi tahlil qilingan. Olima fikricha, turmush tarzini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri – bu ish bilan ta’minlanishni oshirish va mehnat sharoitlarini yaxshilashdir.

S.Zokirovning ishlarida demografiya va aholi geografiyasi muammolari kompleks tahlil qilingan. Olimning yondashuvi bo‘yicha aholi turmush tarzini geografik o‘rganishda demografik ko‘rsatkichlar tabiiy-iqtisodiy sharoitlar bilan birgalikda tahlil qilinishi kerak.

X.Oblaqulov tadqiqotlari Navoiy viloyati misolida ko‘rilgan bo‘lib, hudud aholisining turmush tarzi bevosita cho‘l muhitining insonlar xo‘jaligiga ta’sirini yoritsihga xizmat qilgan. Tadqiqotchi viloyatni tabiiy-xo‘jalik sharoiti nuqtai-nazaridan 3 ta hududga ajratish o‘rinli ekanligini asoslagan [10].

Yuqorida ko‘rib chiqilgan xorijiy, rus va o‘zbek olimlarining qarashlarini umumlashtirib, turmush tarzini ijtimoiy-geografik obyekt sifatida quyidagicha ta’riflash mumkin: *aholi turmush tarzi – bu muayyan hududda yashovchi aholi guruhlari tomonidan tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy muhitga moslashish natijasida shakllangan, mehnat faoliyati, dam olish, oilaviy munosabatlar, ovqatlanish, kiyim-kechak, uy-joy, ma’naviy-madaniy ehtiyojlarni qondirish usullarini birgalikda qamrab oluvchi va hududiy o‘zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo‘lgan murakkab ijtimoiy-geografik hodisadir.*

Mazkur ta’rifdan kelib chiqib, turmush tarzining tarkibiy elementlari quyidagicha ajratiladi: mehnat faoliyati sohasi (band bo‘lish, mehnat sharoitlari, kasb tanlash); oilaviy-maishiy soha (nikoh, oila tuzilishi, uy ishlari); iste’mol sohasi (ovqatlanish, kiyim-kechak, transport, kommunal xizmatlar); ma’naviy-madaniy soha (ta’lim, din, san’at, axborot olish); ijtimoiy-aloqaviy soha (qo‘shnichilik, qarindosh-urug‘lik aloqalari, ijtimoiy ishtirokchilik); rekreatsion soha (dam olish, sport, sayohat); ekologik soha (atrof-muhit sharoitlari, ekologik xulq-atvor).

Aholi turmush tarzining hududiy farqlanishi geografik tadqiqotlarning markaziy obyektlaridan biri hisoblanadi. Bunday farqlanish ikki asosiy darajada namoyon bo‘ladi: *mikro darajada* – bir aholi punkti yoki bir tuman hududidagi turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida; *makro darajada* – turli viloyatlar, mamlakatlar yoki qit’alar o‘rtasidagi tafovutlar tarzida. Farg‘ona viloyati sharoitida turmush tarzining mikro darajadagi farqlanishi shahar va qishloq, tog‘li va tekislik, sanoatlashgan va agrar tumanlar o‘rtasida yaqqol ko‘rinadi.

Ijtimoiy-geografik makon tushunchasi aholi turmush tarzini geografik tadqiq etishda fundamental kategoriyalardan biri hisoblanadi. Bu tushuncha har bir hududning tabiiy-geografik xususiyatlarini ijtimoiy munosabatlar va madaniy-tarixiy meros bilan birgalikda ifoda etadi. Anri Lefebr 1974-yilda nashr etilgan “Makonning ishlab chiqarilishi” (La production de l’espace) asarida makonni ijtimoiy mahsulot sifatida talqin qilgan va aholi turmush tarzining makon orqali shakllanishini asoslab bergan [2]. H.Lefebrning yondashuvi keyinchalik radikal geografiya va post-strukturalist geografiyada keng rivojlantirildi.

Aholi turmush tarzining hududiy farqlanishini izohlashda *geografik determinizm* va *possibilizm* o‘rtasidagi kontseptual qarama-qarshilik tarixiy ahamiyatga ega. Geografik determinizm yondashuvining asoschisi nemis geografi Fridrix Rattsel 1882-yilda chop etilgan “Antropologiya” asarida (Anthropogeographie) insoniyat madaniyati, jamiyat tuzilmasi va turmush tarzi tabiiy muhit tomonidan birinchi navbatda belgilanadi degan g‘oyani ilgari surdi. Bu yondashuv keyinchalik tanqidga uchradi, xususan, Vidal de la Blash maktabi possibilizm konsepsiyasini taklif etib, tabiat insonga imkoniyatlar majmuini taqdim etishi, ulardan qaysi birini tanlash esa madaniy-tarixiy omillarga bog‘liq ekanligini asoslab berdi.

Bugungi kunda *neodeterministik* yondashuv Jared Daymondning “Qurollar, mikroblar va po'lat” (Guns,

Germs, and Steel, 1997) asari orqali yangi ko‘rinishda namoyon bo‘ldi [1]. Olimning fikriga ko‘ra, tabiiy sharoitlar madaniy taraqqiyot va turmush tarzi shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi, biroq bu ta’sir bir tomonlama va to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki ko‘p bosqichli va kompleks xarakterga ega. J.Daymondning yondashuvi turmush tarzini tadqiq etishda zamonaviy fanlararo metodologiyaning yo‘nalishlaridan birini ifoda etadi.

Aholi turmush tarzining o‘ziga xos hodisalari sifatida *konvergensiya* va *divergensiya* jarayonlari geografik adabiyotda batafsil tahlil qilingan. *Konvergensiya* deyilganda turli hududlarda yashovchi aholining turmush tarzi standartlarining yaqinlashishi tushuniladi. Bu jarayon globallashuv, urbanizatsiya, kommunikatsiya va transport rivoji ta’sirida tezlashmoqda. *Divergensiya* esa, aksincha, turli aholi guruhlari turmush tarzi orasida tafovutlarning kuchayishini anglatadi. Farg‘ona viloyatida bu ikki jarayon bir vaqtda kechib, shahar va qishloq orasida hayot tarzlari konvergent yo‘nalishda rivojlansa-da, ayni paytda mintaqaning turli qismlari orasida iqtisodiy va ijtimoiy tafovutlar saqlanib qolmoqda.

Aholi turmush tarzini hududiy nuqtai nazardan tadqiq etishda *barqaror rivojlanish* konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. BMT 1987-yilda chop etilgan Brundtland hisoboti (“Our Common Future”) bilan boshlanib, 1992-yildagi Rio konferentsiyasi, 2015-yildagi Davom etgan Rivojlanish Maqsadlari (SDG) doirasida bu konsepsiya jahon miqyosida tan olingan. Aholi turmush tarzining barqaror rivojlanishi uchun nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki ekologik muvozanat, ijtimoiy adolat va madaniy meros saqlanishi ham birgalikda ta’minlanishi zarur. Farg‘ona viloyati misolida bu maqsad ayniqsa muhim, chunki mintaqada aholi zichligi yuqori, suv resurslari cheklangan, tuproq unumdorligi pasayish xavfi mavjud.

Xulosa. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aholi turmush tarzini ijtimoiy-geografik tadqiq etish metodologiyasi uzoq tarixiy evolyutsiya natijasida shakllangan bo‘lib, unda xorijiy, MDH va O‘zbekiston geografiya maktablarining ilmiy qarashlari o‘zaro uzviy bog‘liq holda rivojlangan. Agar dastlabki tadqiqotlar asosan tabiiy-geografik omillarning ta'sirini izohlashga qaratilgan bo‘lsa, keyinchalik iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy omillarning hududiy jarayonlardagi o‘rni tobora chuqurroq ochib berildi.

MDH va O‘zbekiston olimlarining ilmiy merosi aholi turmush tarzining hududiy tafovutlarini mehnat resurslari, demografik jarayonlar, urbanizatsiya, tabiiy sharoit va mintaqaviy rivojlanish bilan bog‘liq holda izohlash imkonini beradi. Zamonaviy nazariy yondashuvlar — ijtimoiy makon konsepsiyasi, radikal va poststrukturalist geografiya, neodeterminizm hamda barqaror rivojlanish konsepsiyasi esa turmush tarzini kompleks, ko‘p omilli va fanlararo yondashuv asosida tadqiq etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Shu bois aholi turmush tarzini ijtimoiy-geografik obyekt sifatida baholashda tabiiy, iqtisodiy, demografik, ekologik va madaniy omillarni yagona tizim sifatida o‘rganish ilmiy jihatdan eng maqbul yondashuv hisoblanadi. Mazkur metodologik asoslar O‘zbekiston hududlari, jumladan, Farg‘ona vodiysi sharoitida aholi turmush tarzining hududiy xususiyatlarini aniqlash, mavjud tafovutlarni baholash hamda ularni kamaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim nazariy poydevor vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Diamond J. Guns, Germs, and Steel: The Fates of Human Societies. –New York: W.W. Norton, 1997. -480 p.
2. Lefebvre H. The Production of Space. –Oxford: Blackwell, 1991. -454 p.
3. Soliev A. O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. –Toshkent: Universitet, 2014. -416 b.
4. Акромов З.М. Ишлаб чиқариш кучларини жойлаштириш муаммолари. –Тошкент: Фан, 1984. -175 б.
5. Баранский Н.Н. Экономическая география. Экономическая картография. –М.: Географгиз, 1956. -366 с.
6. Исаченко А.Г. Ландшафтоведение и физико-географическое районирование. –М.: Высшая школа, 1991. -366 с.
7. Ковалев С.А. Сельское расселение (географическое исследование). –М.: Издательство МГУ, 1963. -371 с.
8. Қорахонов М.Қ. Ўзбекистон аҳолиси демографияси. –Тошкент: Фан, 1983. -162 б.
9. Максаковский В.П. Географическая картина мира. Кн. 1: Общая характеристика мира. –М.:

Дрофа, 2008. -495 с.

10. Облақулов Ҳ.А. Навоий вилоят аҳолиси турмуш тарзи: географик омиллар, ҳудудий тафовутлари. Навоий. “LESSON PRESS” nashriyoti, 2022. – 126 б.
11. Родоман Б.Б. Территориальные ареалы и сети: Очерки теоретической географии. –Смоленск: Ойкумена, 1999. -256 с.
12. Хорев Б.С. Региональная политика в СССР: экономико-географический подход. –М.: Мысль, 1989. -286 с.